



**MILLIY QADRIYATLARGA
TAYANGAN TARAQQIYOT**

**ZAFAROBODDA
MABLAG' YETMAYAPTIMI?** 5

**MUKOFOT
MUBORAK!** 4

AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHGA QARATILGAN ZARUR CHORA-TADBIRLAR BELGILANDI

PREZIDENT SHAVKAT MIRZIYOYEV 13-DEKABR KUNI TOSHKENT SHAHRI UCHTEPA TUMANIDAGI INFRATUZILMA VA IJTIMOY SOHA OBYEKLARI FAOLIYATI BILAN TANISHDI HAMDA FAOLLAR ISHTIROKIDA YIG'ILISH O'TKAZDI.



Davlatimiz rahbari dastlab «Toshshahartransxizmat» aksiyadorlik jamiyati tizimidagi 18-avtobus saroyida bo'ldi.

Jamoat transporti tizimi rivojlangani shahar hayotining eng muhim jihatlardan biri. Lekin Toshkent shahrida bu soha hozirgi o'zgarishlardan orqada qolmoqda. Xususan, so'nggi yillarda ko'plab turar joylar qurildi, aholi soni oshdi, shahar hududi ham kengaydi. Poytaxtimizda kuniga 1 million 300 ming yo'lovchi jamoat transportidan foydalanmoqda. Bu talabga javob berish uchun «Toshshahartransxizmat» tizimida avtobuslar yetishmayapti. Borlarining ham ko'pi eskirgan. Shu sababli yo'nalishlarga rejaga nisbatan 90-100 ta avtobus kam chiqmoqda. Ko'chalarda jamoat transporti ustuvorligi yo'lga qo'yilmagan. Bularning oqibatida yo'lovchilar avtobuslarni 20-30 daqiqagacha kutishiga to'g'ri kelmoqda.

Davlatimiz rahbari bu holatni keskin tanqid qilib, ayniqsa, hozirgidek sovuq kunlarda bunga umuman yo'l qo'yib bo'lmashini ta'kidladi. Shu bois, kuchaytirilgan tartibda ishlab, eng og'ir yo'nalishlarga qisqa muddatda qo'shimcha avtobuslar qo'yish bo'yicha topshiriq berdi. Buning uchun xususiy korxonalar avtobuslari ham jalb etiladi. Ularga xarajatlarning bir qismini qoplash uchun davlat tomonidan subsidiya beriladi. Yo'l harakati xavfsizligi xodimlari avtobuslar qatnoviga qo'shimcha qulayliklar yaratadi. Qatnovlar tezkorligi va xizmat sifatini ta'minlash, haydovchilarning oylik maoshlarini oshirish bo'yicha ham ko'rsatma berildi.

Davomi 2-betda

«MILLIY TIKLANISH»



ANONSLAR

Muharrir minbari

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi so'roviga asosan energosotish idoralaridan olingan ma'lumotlar keyingi yillarda iste'mol miqdorining jiddiy ortgani va tizimning bunday o'sishga moslashishi qiyin kechayotganini ko'rsatmoqda. Ma'lumotnomada quyidagilarga e'tibor qaratilgan.



2016

-yildan beri elektr iste'molchilari soni 5,9 mln.dan 7,3 mln.ga oshgan. Iste'mol miqdori esa 46 090 mln. kVt.dan 62 419 mln. kVt.ga ko'paygan. Tabiiy gaz iste'molchilari to'g'risidagi ma'lumotlar ham yuqoridagidek dinamikani ko'rsatayapti. Ya'ni, gaz iste'moli 2017-yildagi 3,38 mln.dan 2022-yilda 4 mln.ga yetgan va iste'mol 35,5 mlrd. kub metrdan 42,8 mlrd.kub metrga oshgan. Agar iste'molchilarga 2016-yil 251 ming tonna suyuqlashtirilgan gaz yetkazib berilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib, bu hajm 802,7

ming tonnaga ko'paygan. Statistik ma'lumotlarda qayd etilishicha, O'zbekiston aholisi har yili 700 mingga oshib borayapti. Bu esa aholi iste'moli bilan birga iqtisodiy o'sish sur'ati energoresurslarga bo'lgan talabning ham muttasil oshishiga olib kelmoqda, deganidir. Xulosa qilib shuni aytish joizki, bunday sharoitda qanchalar og'ir bo'lmasin hokimiyat va xalq mustahkam birlashishi va ushbu sohalarida tub islohotlarni bir yoqadan bosh chiqarganicha amalga oshirishi kerak.

402



NAFAR SHAXS AFV ETILDI



ZO'RA- VON- LIK

QADRIYAT EMAS!

» QARS BIR
QO'LDAN
CHIQMAYDI 3

» NIMALAR
O'ZGARDI?.. 4

» KASB
TANLASHDAGI
XATO
QIMMATGA
TUSHISHI
MUMKIN 6



MAKTABGACHA TA'LIM MUAMMOLARI

Vazirimiz anchadan beri shu masalani ko'taradi, ammo Moliya vazirligi e'tibor qaratmaydi...

2

JALOLIDDIN
MANGUBERDINING

QABRI QAYERDA?

3





Toshkent shahri tumanlariga elektrda ishlaydigan 2 megavattli stansiyalar olib kelib, qo'shimcha issiqlik quvvatlari yaratish taklifi ma'qullandi. Bunday bitta qurilma 1 ming 340 ta xonadonga issiqlik yetkazib beradi. Ishlab chiqarish xarajati kamligi evaziga narx oshmaydi.

(Boshlanishi 1-betda)

AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAKSHILASHGA QARATILGAN ZARUR CHORA-TADBIRLAR BELGILANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 13-dekabr kuni Toshkent shahri Uchtepa tumanidagi infratuzilma va ijtimoiy soha obyektlari faoliyati bilan tanishdi hamda faollar ishtirokida yig'ilish o'tkazdi.

Shu yerda Toshkent shahrida jamoat transportini rivojlantirish masalalari bo'yicha taqdimot o'tkazildi. Qayd etilganidek, bu yil 277 ta avtobus va elektrobust xarid qilindi, qatnovga qo'yildi. Avtobuslar harakati va to'lovlar tizimi raqamlashtirildi. Bugungi kunda «Toshshahartransxizmat» tizimida 142 ta yo'nalish bor. Yo'lovchilar oqimining ko'payish prognozidan kelib chiqib, jamoat transportining 167 ta yo'nalishdan iborat yangi tarmog'i shakllantirilgan. Bu yo'nalishlarni ta'minlash va Toshkent shahrida jamoat transportiga bo'lgan talabni to'liq qondirish uchun yana 1000 ta katta sig'imli avtobus zarur. Bu orqali avtobuslarning oraliq intervalini 7-10 daqiqagacha qisqartirish mumkin. Prezident avtobus saroyidagi transportlarni ko'zdan kechirdi. Ushbu korxonada 22 ta yo'nalish bo'yicha kuniga 74 ming yo'lovchiga xizmat ko'rsatmoqda. Davlatimiz rahbari «Toshkent issiqlik markazi» korxonasining Chilonzor issiqlik markazini borib ko'rdi. Ushbu majmua 1969-yilda qurilgan. Qozonxonada 700 Gkal quvvatga ega. Markaz 921 ta ko'p qavatli uy va 100 dan ortiq ijtimoiy soha obyektlariga issiqlik quvvati yetkazib beradi. So'nggi kunlarda ob-havoning keskin sovit ketishi oqibatida gaz bosimining pastligi kuzatilmoqda.

Bu itish darajasiga salbiy ta'sir qilmog'ida. Chilonzor issiqlik markazida ham uskuna va tarmoqlar eskirgan. Issiqlikni uzatishda yo'qotishlar bor. Shu bois, bu boradagi zaruriy chora-tadbirlar muhokama qilindi. Davlatimiz rahbari issiqlik ishlab chiqarishning muqobil manbalarini izlash, quvurlar va uylarda haroratni asrash zarurligini ta'kidladi. Toshkent shahri tumanlariga elektrda ishlaydigan 2 megavattli stansiyalar olib kelib, qo'shimcha issiqlik quvvatlari yaratish taklifi ma'qullandi. Bunday bitta qurilma 1 ming 340 ta xonadonga issiqlik yetkazib beradi. Ishlab chiqarish xarajati kamligi evaziga narx oshmaydi. Shavkat Mirziyoyev kutilmaganda shu yerdagi Shirin mahallasini kirib ko'rdi. Aholi xonadonlarida bo'lib, turmush sharoitlari, issiqlik ta'minoti bilan qiziqdi. Shundan so'ng davlatimiz rahbari Uchtepa tumanini Nayman mahallasidagi oilaviy bolalar uyi bilan tanishdi. Mamlakatimizda yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar alohida e'tiborga olingan. Davlat tomonidan berilgan imtiyozlar natijasida bunday bolalarni o'z bag'riga olayotgan oilalar ortib bormoqda. Jumladan, 131 ta oilaviy bolalar uylari tashkil etilib, 808 nafar o'g'il-qiz tarbiyaga olingan.

Uchtepa tumanidagi mazkur oilaviy bolalar uyi ham shu boradagi ishlarning mantiqiy davomidir. 2 qavatli bino Milliy gvardiya tomonidan rekonstruksiya qilinib, 12 ta oila uchun sharoit yaratilgan. Barcha xonadonlar maishiy texnika, mebel va xo'jalik jihozlari bilan ta'minlangan. Prezidentimiz shunday oilalardan biri – Inomjon va Dildora Davlatovlar xonadonida bo'ldi. Ular 4 nafar yetim bolani o'z qaramog'iga olgan. Bolajonlar o'z oilasi bo'lishini orzu qilgani, davlat e'tibori bilan bu orzusi ushlaganini aytishdi. Ota-onalarning o'z farzandlari va tarbiyaga olingan bolalar shu yerdagi 238-umumta'lim maktabida ta'lim oladi. Majmua 2 ta sport zali, mini-futbol stadioni, o'yin va vorkaut maydonchalari, yozgi sahna, xiyobon tashkil etilgan. Manzarlari va mevali daraxt nihollari ekilgan. Mo'jazzgina tomorqada ro'zg'orbop mahsulotlar yetishtiriladi. Davlatimiz rahbari o'quv va sport to'garaklarini kirib ko'rdi, yoshlar bilan suhbatlashdi. Shu yerda Toshkent shahri tumanlarini mahallabay rivojlantirish masalalari bo'yicha yig'ilish o'tkazildi. O'lgan 11 oyda poytaxtimizda 650 ta loyiha amalga oshirilib, 30 mingta ish o'ri yaratilgan. Xususan, Uchtepa tumanida yangi tadbirkorlik subyektlari soni 1 ming 110 taga ko'paygan.

Toshkentda savdo, sanoat va xizmatlarni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar borligi qayd etildi. Bundan to'la foydalanib, poytaxtni ishsizlikdan xoli hududga aylantirish vazifasi belgilandi. Prezidentimiz ijtimoiy muammolarni hal etish masalalariga alohida e'tibor qaratdi. Poytaxtimizda 584 ta mahalla bor. Ularni obod qilish, yo'llarni yaxshilash bo'yicha ko'p ishlar qilinmoqda. Davlatimiz rahbari navbatdagi rejalar, aholining talab-istaklari yuzasidan mahalla raislari bilan suhbatlashdi. Ulardan kelib chiqib, 44 ta ijtimoiy obyektni ta'mirlash, bolalar bog'chasi, poliklinika, istirohat bog'i tashkil etish choralarini belgilandi. Toshkent shahridagi 12 ta issiqlik markazining barchasi 1968 – 1986-yillarda qurilgan bo'lib, uskunalar eskirgan. Shu bois, ulardan 9 tasi negizida issiqlik va elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi zamonaviy markazlar tashkil etiladi. Natijada poytaxtimizda har yili qo'shimcha 3 milliard kilovatt-soatdan ziyod elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Yangi yil bayrami arafasida bozorlarga oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish, jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ham ko'rsatmalar berildi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOEV,
O'ZA muxbirlari



✓ Fraksiyada

MAKTABGACHA TA'LIM MUAMMOLARI

Vazirimiz anchadan beri shu masalani ko'taradi, ammo Moliya vazirligi e'tibor qaratmaydi...

(Boshlanishi 1-betda)

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasining navbatdagi yig'ilishida «Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'i kengaytirilishi hamda sohada nodavlat sektor ulushining oshirilishi munosabati bilan «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga o'zgartishlar kiritish haqidagi qonun loyihasi muhokama qilindi.



Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim qamrovi va sifatini oshirish, sohada nodavlat sektor ulushini kuchaytirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmog'ida. Lekin amaldagi qonunchilikda oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ko'p bilan 25 nafargacha bolani olishi mumkinligi belgilab qo'yilgan bo'lib, bu modda qamrov darajasini oshirishga imkon bermayapti. Shundan kelib chiqib, ushbu qonun loyihasida oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ko'p bilan 50 nafargacha bola olish, shuningdek, tarbiyalanuvchilar sonidan kelib chiqib, 4 nafargacha tarbiyachi va yordamchilarni yollashga ruxsat berilmog'ida. Maktabgacha ta'lim vazirining birinchi o'rinbosari Bahodirjon Onorboyevning qayd etishicha, bugungi kunda mamlakatimiz bo'yicha 20842 ta uy bog'chalari bor. Xususiy bog'chalari soni esa 817 tani tashkil qiladi. Lekin 643 ta mahallada na oilaviy bog'cha, na davlat bog'chalari bor. 2246 ta mahallada qamrov darajasi 50 foizga ham yetmaydi. 3600 ta bog'chada esa qamrovni oshirishga ehtiyoj bor. Ma'lumki, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 2026-yilga qadar maktabgacha ta'lim qamrovini 80 foizdan oshirish belgilangan. Lekin shu o'rinda davlat budjetidan yangi bog'chalar qurish uchun yildan-yilga kam mablag' ajratilayotganini aytish joiz. Masalan, joriy yilda atigi 24 ta davlat bog'chasi qurildi, xolos. 2023-yilning investitsiyaviy loyihasida

esa umuman davlat MTTni qurish nazarda tutilmayapti. Faqat 166 ta davlat bog'chalarni qayta ta'mirlash belgilanmog'ida, xolos. Demak, ushbu omillar bu borada nodavlat sektorni, ya'ni oilaviy bog'chalarni rivojlantirish zaruratini tug'dirmog'ida. Ma'lumki, maktabgacha ta'limni rivojlantirish «Milliy tiklanish» demokratik partiyasining Saylovoldi dasturida belgilangan eng ustuvor vazifadir. Fraksiya a'zolarining joylardagi o'rganishlarida ham asosiy e'tibor ushbu sohadagi muammo va kamchiliklarni aniqlashga qaratiladi. Shu sabab maktabgacha ta'lim samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan ushbu qonun loyihasi deputatlarimizning qizg'in muhokamalariga sabab bo'ldi. Jumladan, fraksiya a'zosi Ahmadjon G'aniyev «Tushuntirish xati»dan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2018-yil 5-apreldagi qarorida aynan ushbu vazifa nazarda tutilganini va amaldagi qonunchilikka ikki oyda o'zgartish kiritish belgilanganiga qaramay nima uchun bu haqdagi qonun loyihasi oradan besh yil o'tib Oliy Majlisga kiritilganiga e'tiroz bildirdi. O'ktam Islamov esa bugun oilaviy bog'chalarning aksariyati 25 nafar bolani eplay olmayotgan bir sharoitda, ularga 50 nafargacha bola olishiga ruxsat berish noto'g'ri ekanini, ta'lim-tarbiyaning poydevorini hisoblangan maktabgacha ta'lim asosan davlat nazoratida bo'lishi lozimligini ta'kidladi. Fraksiya rahbari Alisher Qodirov

ushbu qonun loyihasini ijobiy baholab, bog'chalarda oliy ma'lumotli kadrlar masalasiga e'tibor qaratdi. – Joylardagi o'rganishlarimizdan ma'lum bo'ldiki, davlat bog'chalari ham, nodavlat bog'chalarda ham oliy ma'lumotli kadrlar yetishmayapti. Yana bir muhim ko'rsatkich: bugun O'zbekistonda 75 bolaga bitta oliy ma'lumotli tarbiyachi to'g'ri kelyapti. Ularning ham asosiy qismi Toshkent shahrida. Jami esa mamlakatimizda 267 ming nafar oliy ma'lumotli tarbiyachiga ehtiyoj bor. Ming afsuski, oliy ta'limda bunday kadrlar deyarli tayyorlanmayapti. Chunki oliy ma'lumotli tarbiyachilarga to'lanadigan ish haqi yuqori emas. Shuning uchun ham borgan sari ushbu sohaga bo'lgan qiziqish so'nyapti. Qayd etish joizki, bog'cha bolalarni vaqtincha saqlab turadigan joy emas, tarbiya beradigan maskanga aylanmas ekan, bu borada qabul qilinayotgan qonunlarimiz chalajon bo'lib qolaveradi, – dedi Alisher Qodirov. B. Onorboyev tizimdagi kamchiliklarga izoh berar ekan, vazirlik tuzilganiga endi 5 yil, nodavlat sektorni rivojlantirishga qaratilgan ishlarning boshlanganiga esa 3 yil to'lganini aytib, bu borada hali ishlar ko'pligini ta'kidladi. Shuningdek, tizimda joriy yilda oliy ma'lumotli tarbiyachilar soni oshirilgani, kelgusi yilda ham bu ishlar davom etishini ma'lum qildi. Lekin vazirlik vakili oliy ma'lumotli tarbiyachilarning so'nggi uch yilda o'sish dinamikasi haqidagi savolga javob bera olmadi. Nodirjon Tilavoldiyev vazirlik vakilining 2023-yil investitsiyaviy loyihasida birorta ham davlat MTTni qurish nazarda tutilmagani haqidagi ma'lumotiga e'tiroz bildirdi. Uning

aytishicha, tizimda xususiy emas, davlat bog'chalarni ko'paytirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki deputatlar hududlarda saylovchilar bilan uchrashganda aholi «bizga davlat bog'chalari kerak» degan masalani ko'p ko'tarmog'ida. Bu bejiz emas. Chunki odamlarning oilaviy bog'chalardagi shart-sharoitlar, hatto korrupsiya holatlaridan xabarlar bor. Ular farzandlarini bunday bog'chalarga berishni ohlamayaptilar. Abdulmalik Akramov esa tarbiyachilarning ish haqini oshirish masalasiga to'xtalib, Maktabgacha ta'lim vazirligi bu masalani bir necha yildan buyon ko'tarayotgani, ammo Moliya vazirligi bunga e'tibor qaratmayotganini ta'kidladi. Shuning uchun ham «Milliy tiklanish» partiyasi fraksiyasi davlat budjeti muhokamalarida bu muammoni qat'iy ko'tarish lozim degan taklifni o'rtaga tashladi. Qariyb ikki soatga cho'zilgan muhokamalardan so'ng deputatlar ham, qonun loyihasi tashabbuskorlari ham tizimdagi muammolarni birgalikda hal qilish samarali bo'ladi, degan yakdill fikrga keldilar va partiya g'oyalaridan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'limni rivojlantirishga qaratilgan har qanday sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlashini ta'kidlab, ushbu qonun loyihasini birinchi o'qishda ma'qulladilar. Yig'ilishda shuningdek, «Tibbiyot xodimining faoliyatiga to'g'ri kelganlik uchun javobgarlik belgilanishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va

qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonun loyihasi ikkinchi o'qishda muhokama qilindi. Ma'lumki, keyingi yillarda mamlakatimizda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami, shoshilinch tez tibbiy yordam va ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmat tarmog'ini o'z ichiga oluvchi tibbiyotning uch bosqichli milliy modeli yaratilib, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish samaradorligini, sifati va qulayligini oshirishga alohida e'tibor qaratilyapti. Ammo shunga qaramay, sohada bir qator muammolar mavjud, shulardan biri tibbiyot xodimlariga g'ayriqonuniy tajovuz qilish holatlariga chek quyilmayapti. Ma'lumotlarga qaraganda, 2010 – 2022-yillarda 285 holatda tibbiyot xodimlariga nisbatan turli shaklda tajovuzlar qilingan. Ammo amaldagi qonunchilikda xizmat vazifasini bajarayotgan tibbiyot xodimlariga nisbatan tajovuz qilganlik, faoliyatga to'sinlik qilganlik uchun javobgarlik belgilanmagan. Garchi bunday shaxslar Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning turli moddalari bilan javobgarlikka tortilayotgan bo'lsada, ular qilmishiga yarasha jazo olmayaptilar. Ushbu qonun loyihasi bilan endilikda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks yangi moddalar bilan to'ldirilib, tibbiyot xodimiga qonunga xilof ravishda ta'sir o'tkazgan fuqarolarga 1,5 mln. so'mdan 2,1 mln. so'mgacha, mansabdor shaxslarga esa 2,1 mln. so'mdan 3 mln. so'mgacha jarima yoki 15 sutkagacha ma'muriy qamoq jazosi belgilash ko'zda tutilyapti.

Ravshan MAHMUDOV,
«Milliy tiklanish» muxbiri

GENDER

TENGLIK

ZO'RAVONLIK QADRIYAT EMAS!

Tazyiq va zo'ravonlik! Bu har qanday insonning hayoti, sha'ni, qadr-qimmat, salomatligi, hatto huquqlariga daxl qiladigan illatdir. U nafaqat jismoniy kuch ishlatish, balki axloqiy, ruhiy, ma'naviy yoki iqtisodiy ta'sir ko'rsatish orqali ham namoyon bo'ladi. Bugun ushbu illat biror-bir mamlakat yoxud mintaqaning emas, balki butun dunyo hamjamiyatining ham dolzarb muammosiga aylandi. O'zbekiston ham ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishni qonunchilik bilan belgilagan kam sonli davlatlar qatoridan joy olgan bo'lsada, bu masala bizda kun tartibidan tushmay qoldi. Ayollar o'limining sabablari tahlil qilinganda, 32 foizi turmush o'rtog'i tomonidan sodir etilgani aydinlashgan. Shu o'rinda o'z yaqinlari tomonidan tazyiq va zo'ravonlikka uchragan ayollarning 42 foiziga o'z muammolari haqida ochiq so'zlay olmayapti, xolos.

Tan olaylik, bunday noxush holatlar kundan-kunga ortib borayotganining o'ziga xos sabablari bor. Xotin-qizlarning huquqi savodxonligi yetishmasligi, ularni himoya qiluvchi markazlar, tashkilotlar borligidan bexabarligi, eng asosiysi, tazyiq va zo'ravonlikka uchragan kimga va qayerga murojaat qilishni bilmayliklaridir. Yoki bo'lmasa, «Qo'shningga aytasang, qo'shadi, ovulga aytasang, oshadi», qabilida ish tutib, oilasi sha'ni, farzandlari kelajagini o'ylab, alaminini ichga yutayotganida. Achinarlisi, yaqinlari tomonidan muttasil jabr-sitam ko'rayotgan ayrim opa-singillarimiz bu adoqsiz azoblardan qutulishning yagona chorasi - o'z joniga siqasod qilish, deb hisoblashadi.

Bunday ayollarni o'z muammolari girdobida yolg'iz qoldirmaslik barchamiz uchun burchdir. Partiya Markaziy kengashi «Ayollar qanoti» tomonidan 25-noyabr - «Xalqaro ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashish kuni» munosabati bilan «Biz zo'ravonlikka qarshimiz!» shiori ostida 16 kunlik faollik aksiyasi e'lon qilindi. Loyiha doirasida partiya xodimlari hamda «Deputat ayollar klubi» a'zolari tomonidan xotin-qizlarning huquqi bilimlarini boyitish, ularni tazyiq va zo'ravonlikka qarshi qabul qilingan qonunlarning mazmun-mohiyati bilan tanishtirishga qaratilgan tadbirlar, davra suhbatlari o'tkazildi. Mahallalarda «Sayyor qabul»lar, xotin-qizlar uchun motivatsion-

Guruhlariga bo'linganda ularning 106 tasi jinsiy, 234 tasi iqtisodiy, 18 777 tasi ruhiy, 13 658 tasi jismoniy zo'ravonlik hamda 7 174 tasi tazyiq holatlari ekani aniqlangan. Eng yomoni, zo'ravonlik holatlarining 34 330 tasi goki 87 foizi oilada sodir etilgan

psixologik treninglar hamda bepul tibbiy ko'riklar ham tashkil etildi. Aksiya doirasida «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida»gi qonunning ijrosini ta'minlashda ijtimoiy hamkorlik» mavzusida ochiq muloqot bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi, Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish respublika markazi rahbarlari ishtirok etib, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish borasida tizimda amalga oshirilayotgan ishlarni muhokama qildilar. Noan'anaviy tarzda o'tgan davra suhbatini partiya Markaziy kengashi raisi o'rinbosari Feruza Muhammadjanova kirish so'zi bilan ochib, ayollarga nisbatan sodir etilayotgan tazyiq

va zo'ravonliklarning asosiy sababi oilada ham, jamiyatda ham ayollarning huquqlari to'la ta'minlanmayotganida, deya iddao qilayotganlar ham yo'q emasligini ta'kidladi. Aslida ayol va erkakning huquqlarini ta'minlash borasida sharhning g'arbga andoza bo'ladigan jihatlari ko'p, - dedi notiq o'z so'zida. - Biz qadriyatlarimiz gulto'ji bo'lgan oila institutini mustahkamlasak, o'zaro hurmat, mehr-muhabbat, oqibat negiziga qurilgan oilaviy munosabatlarni qayta tiklasak, bunday illatlar o'z-o'zidan barham topadi. Qolaversa, bir-birini yaxshi ko'rgan, hurmat qilgan insonlar tenglik haqida talashishmaydi...

Shuningdek, yig'ilganlarga oilaviy va shaxslararo munosabatlarda qonuniyligni ta'minlash borasidagi asosiy vazifalar yuzasidan tushunchalar ham berildi. - Inson Yaratganning mo'jizasi. Uni tahqirlashga hech kimning haqqi yo'q, - dedi O'zbekiston Respublikasi IIB huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Umida Abdullayeva. - Afuski, ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, tazyiq va zo'ravonliklar kamaymayapti. O'tgan yili ichki ishlar organlariga xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlari yuzasidan 39 343 ta murojaat kelib tushgan va ularga himoya orderlari rasmiylashtirib berilgan. Guruhlarga bo'linganda ularning 106 tasi jinsiy, 234 tasi iqtisodiy, 18 777 tasi ruhiy, 13 658 tasi jismoniy zo'ravonlik hamda

7 174 tasi tazyiq holatlari ekani aniqlangan. Eng yomoni, zo'ravonlik holatlarining 34 330 tasi yoki 87 foizi oilada sodir etilgan.

Biz aksariyat hollarda bunday holatlarning muhosh oqibatlarini bilangina kurashamiz. Aslida illatning ildizi bilan, ya'ni nosog'lom muhit hukmron bo'lgan oilalar bilan tizimli ishlashimiz zarur. Shu yo'l bilangina zo'ravonliklar oqibatida kelib chiqadigan oilaviy ajrashishlarning oldini olish mumkin bo'ladi.

Tadbirda Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi huzuridagi Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish Respublika markazi direktori Muqaddam Rasulova hamda Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi bo'lim boshlig'i Bahodir Kaharovning tizimda zo'ravonlikni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar haqidagi ma'ruzasi, shuningdek, partiyaning Yuridik xizmat va murojaatlar bilan ishlash sektori mudiri Adinaxon Abdullayevning muvofiqiyat bilan ishlash borasidagi hisobotini ham yig'ilganlar katta qiziqish bilan eshitdilar. Tadbir yakunida chegara bilmaydigan, davlat, millat, e'tiqod tanlamaydigan bu global ijtimoiy muammoga qarshi kurashda barcha davlat va nodavlat tashkilotlar birlashishlari, o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yishlari lozim, degan xulosaga kelindi.

Feruza JALILOVA, partiya Markaziy kengashi bo'lim boshlig'i

Hamkorlik



Jaloliddin Manguberdingning QABRI QAYERIDA?

yoxud Ayn-Dor qishlog'i tog'lari bag'ridan izlangan haqiqat...



Tarix sahifalari varaqlanganda buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi Turk zaminining Ayn-Dor qishlog'i tog'fari orasida jon taslim qilgani haqidagi ma'lumotlarga duch kelamiz. Lekin shunga qaramay, shu kungacha uning qabri qayerda ekanligi ko'plab muhokama va savollarni tug'diradi. Ulug' ajdodimiz haqida "... tog'da qaroqchilar tomonidan uxlab yotganida o'ldirildi, ... dafn etilgan yeri noaniq" deb o'qish esa kishi ko'ngliga allanechuk isyonli tuyg'ularni soladi.

Xorazmda sarkarda haykalining ochilish marosimida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: «Qardosh Turkiya davlati bilan kelishib, bu yerda ramziy maqbara bunyod etsak, albatta, har tomonlama savobli ish bo'ladi», degan edilar.

Davlatimiz rahbarining ushbu tashabbuslaridan kelib chiqib, joriy yilning 8 - 15-noyabr kunlari Turkiyaning Istanbul va Diyorbakir viloyatlariga ekspeditsiya tashkil etildi. Ekspeditsiya a'zolari oldiga Jaloliddin Manguberdingning o'ldirilishi va dafn etilishi bilan bog'liq yangi tarixiy manbalarni qiyosiy, tanqidiy, mantiqiy tadqiq etish, Diyorbakir va Silvandagi tarixchilar bilan uchrashib, mavzu yuzasidan muhokamalar tashkil etish, foto va videomateriallar, ko'rsatuvlar tayyorlash kabi qator vazifalar qo'yildi. Safarning ilk kuni Istanbul shahrida Turkiyaning Kojoyeli universiteti tadqiqotchisi, Xorazmshohlar davri davlatchiligi masalalari bo'yicha mutaxassis, «Xorazmshohlarda davlat tashkiloti: siyosiy va madaniy hayot» asari muallifi professor Meryam Gurbuz bilan uchrashuv tashkil qilinib, olim bilan o'zaro manbalar almashish, yangi tadqiqotlarning hamkorlikda olib borilishi yuzasidan kelishuvlarga

erishildi. Shuningdek, ekspeditsiya davomida dunyoning turli nuqtasidan kelgan 33 mingdan ortiq talabalar tahsil olayotgan Dijle universiteti rektori Mehmet Karakoch, mazkur oliygohning xalqaro aloqalar bo'limi rahbari Faruk Go'kche, universitetning Sotsiologik bilimlar instituti rahbari, Tarix bo'limi mudiri Oktay Bozan, mustaqil tadqiqotchi Arafat Yaz bilan uchrashdik. Diyorbakir-Silvan yo'lida, tog'lar orasida joylashgan Ayn-Dor (hozirgi nomi Kabaklibo'g'oz) qishlog'iga uyushirilgan safar chog'ida qishloq muxtori Yilmaz Petak tarixga yuzlanib, Jaloliddin Manguberdi haqida bilganlarini hikoya qilib berdi. Uning aytishicha, 791 yil oldin buyuk sarkardaning kurd qaroqchilari tomonidan o'ldirilgani, xalq qahramonining bunday ayanchli halokati xususida ma'lumotlar bor. Ta'kidlanishicha, Silvaning tarixda bir necha bora vayron qilinib, Jaloliddin Manguberdi dafn qilinishi taxmin etilayotgan joyda ko'p qavatli turar joylar va Silvan-Batman yo'li qurilgan. Shuning uchun ham bu joylarda qabriston, turli inshootlar mavjudligi ayrim manbalarda aytib o'tilgan mo'g'ul tahlilasi tufayli qabrnig yashirilganini inobatga olgan holda sarkardaning qabri mavjud bo'lishi

mumkin bo'lgan maydonlarda arxeologik tadqiqotlar olib borishning hozircha imkoniyati mavjud emas.

Silvan qal'asi va uning Burj ul-Malik qismida olib borilgan kuzatish va o'rganish ishlari esa (eski manbalarda sarkardaning dafn etilgan yeri Burjul Malikning chekkasida deb ko'rsatilgan) ekspeditsiya a'zolarini Silvan hokimi Xasan Uguz qarshi olib, Jaloliddin Manguberdi nomini abadiylashtirish maqsadida Silvanda nafaqat maqbara, balki ko'chalardan biriga uning nomini berish, xiyobon tashkil etish, sarkarda nomiga masjid barpo qilish tashabbusini ilgari surdi. Zotan, 791 yil oldin aynan mana shu shaharning hokimi Malik Shahobiddin G'oziy ham sarkardaning tog'da qaroqchilar tomonidan o'ldirilganidan xabar topib, qotillarni ayovsiz jazolab, sarkarda jasadini shaharning saroy qismi - Burjul Malikka olib keltirgan va izzat-ikrom bilan dafn qildirgani tarixiy manbalarda qayd qilingan. Diyorbakir voliyisi Vali Ali Ihsan Su janoblari ham ota-bobolari yurtidan kelgan mehmonlarni izzat-ikrom bilan kutib olib, bu boradagi mulohaza va takliflarini bildirdi.

Ekspeditsiya yakunida esa o'zbekistonlik va turkiyalik olimlar shu kunga qadar to'plangan

ma'lumotlar, o'rganilgan manbalar, olib borilgan kuzatishlar natijasida xulosa tayyorlandi. Unda Jaloliddin Manguberding xotirasini abadiylashtirish va kelgusi avlodlarga yetkazish uchun Silvanda ramziy maqbara bunyod qilish, sarkarda nomi bilan quriladigan maqbara yonida masjid qurish, bu boradagi keng qamrovi tadqiqotlarni davom ettirish maqsadida 2023-yil may oyida Xorazm viloyatida xalqaro anjuman o'tkazish, O'zbekiston va Turkiyadagi arxiv hujjatlarini o'rganish, qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni esa maqola va kitob holda chop qilinishiga kelishib oldilar. Darvoqe, ekspeditsiyaning yutuqlaridan biri sifatida Turkiyadagi Dijle universiteti, Urganch davlat universiteti hamda Ma'mun universitetlari o'rtasida hamkorlik memorandumlari imzolanganini aytish joiz.

Albatta, moziyning bizga oshkor etmagan sir-sinoatlari bisyor. Bu kabi ilmiy safarlar esa tariximizni tadqiq etishning noodatiy uslublari vujudga kelishiga, o'tmishning biz uchun mavhum bo'lgan jihatlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Bezkod ABDIRIMOV, Jaloliddin Manguberdi fond'i raisi



Umuman olganda, ko'pchilik Naim akani adabiyotshunos, filolog sifatida bilishadi. Lekin men ularni ulug' bir tarixchi olim sifatida ham tan olaman. Chunki Naim aka sovet mustabid tuzumi davri tarixini nihoyatda puxta o'rgangan olimlarimizdan.

QUTLUG' YOSH



Millatning CHIN FIDOYISI

AKADEMIK NAIM KARIMOV TAVALLUDINING 90 YILLIGIGA BAG'ISHLANADI

12-dekabr kuni Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining yetakchi ilmiy xodimi, akademik, eng asosiysi, tom ma'nodagi fidoyi inson Naim Karimov 90 yoshga to'ldi. Hech shubha yo'qki, bu inson o'tgan asrning 30-50-yillaridagi siyosiy qatag'onlar tarixi hamda hozirgi o'zbek adabiyoti bo'yicha yuqori malakali mutaxassis sanaladi. Filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi Naim Karimov qariyb oltmish yildan buyon mamlakatimizda adabiyotshunoslik fani rivojiga ulkan hissa qo'shib kelmoqda. Taniqli olim hukumatimiz tomonidan Beruniy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti (1985) va «O'zbekiston Respublikasi fan arbobi» (1996), «El-yurt hurmati» ordeni bilan mukofotlangan. Qayd etish joizki, shu kungacha Naim Karimov 30 ta monografiya, darslik va o'quv qo'llanmalari, mingdan ortiq maqolalar yaratdi. 20 ga yaqin ishlari xalqaro jurnallar va ilmiy to'plamlarda, 1500 dan ziyod maqolalari respublika matbuotida nashr qilindi. Uning rahbarligida 10 ta doktorlik, 30 dan ziyod nomzodlik dissertatsiyalari yoqlandi. Uning XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotining deyarli barcha davrlari hamda yetakchi namoyandalari ijodi tadqiqiga bag'ishlangan ko'plab ilmiy asarlari nafaqat yurtimiz, balki xorijiy mamlakatlarda ham yuksak e'tirof etilgan. Ayniqsa, Naim Karimovning Milliy uyg'onish davri adabiyotining yetakchi namoyandalari hayoti va

ijodini yangicha nuqtayi nazardan o'rganishga bag'ishlangan ko'plab asarlari tariximizning ochiqqanmagan sahifalariga nazar tashlash imkonini beryapti. «Cho'lpon» (1991), «Usmon Nosir» (1993), «Usmon Nosirning so'nggi kunlari» (1994), «Tog' kabi yuksak» (1997), «Istiqlolni uyg'otgan shoir» (2000), «Cho'lpon» (2003), «XX asr adabiyoti manzaralari» (2008), «Maqsud Shayxzoda» (2010), «Mahmudxo'ja Behbudiy» (2011), «Muhammadsharif So'fizoda» (2012), «Mirtemir» (2012), «Adabiyot va tarixiy jarayon» (2013), «Hamid Olimjon» (2014), «Zulfiya» (2015), «Oybek gulshanidan shabadalar» (2015), «Jadid teatri» (2016), «Abdulla Qodiriy zamondoshlari ensiklopediya»si (2020), «Mahmudxo'ja Behbudiy: Hayoti. Faoliyati. Taqdiri» (2021) singari monografiya, ma'rifiy-biografik romanlari va ilmiy to'plamlarida esa XX asr o'zbek adabiyoti bo'stonidagi eng sara sahifalar Naim Karimovgagina xos latiflik va sinchkovlik bilan tadqiq etildi. Jamoaviy monografiyalar tarzidagi XX asr o'zbek adabiyoti tarixi ko'pildiklari, shuningdek, XX asr o'zbek adabiyotining yetakchi namoyandalari hayoti, ijodiga doir to'la va mukammal asarlarning yaratilishida ham fidoyi olimning xizmatlari beqiyosdir. Xususan, Naim Karimovning faol ishtiroki va rahbarligida G'afur G'ulomning 12 jildidan, Hamid Olimjonning 10 jildidan, Hamzaning 6 jildidan, Oybekning esa 20 jildidan iborat «Mukammal

asarlari to'plami» yaratilib, o'zbek adabiyotshunosligining ushbu yo'nalishini yangi pog'onalariga ko'tardi. Naim Karimov sovet davridagi siyosiy qatag'on qurbonlari nomining tiklanishi, ularning ijodiy va ilmiy merosining xalqimizga qaytarilishida ham faol ishtirok etmoqda. Xususan, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining 2002-yildagi dastlabki hamda 2008-yildagi yangi ekspozitsiyasini yaratish va takomillashtirishda Naim akaning xizmatlari beqiyos bo'lgan. Muzey ekspozitsiyasidagi eng katta davr – bu aynan qatag'onning eng cho'qqisiga chiqqan 1937 – 1938-yillardagi «Katta qirg'in» davriga bag'ishlangan ekspozitsiya edi. Uni Naim akaning kuchi, iqtidori tashkil etdi, deysish mumkin. Chindan ham o'ziga xos mazmunli ekspozitsiya tayyorlandi. Umuman olganda, ko'pchilik Naim akani adabiyotshunos, filolog sifatida bilishadi. Lekin men ularni ulug' bir tarixchi olim sifatida ham tan olaman. Chunki Naim aka sovet mustabid tuzumi davri tarixini nihoyatda puxta o'rgangan olimlarimizdan. Shu o'rinda Domlaning bevosita tashabbus va g'oyalari asosida Davlat ilmiy-texnika dasturi doirasida O'zbekiston tarixining eng fojiali sahifasi sanalmish «1937-1938-yillarda O'zbekistondagi «Katta qirg'in» ensiklopediyasini yaratish bo'yicha amaliy loyiha ham bajarilganini aytilish joiz. Loyiha doirasida N.Karimov tomonidan

«Katta qirg'in»ning kelib chiqishi sabablari va omillari» (2013) hamda «1937 – 1938-yillardagi «Katta qirg'in»ning fojiali oqibatlari» (2015) kabi monografiyalar ham nashr etildi. Ustoz qatag'on qurbonlarining hayoti va faoliyatini faqat olim sifatida o'rganib qolmay, ularga bag'ishlangan 20 ga yaqin hujjatli va telefilmga ssenariistik ham qildi. N.Karimov qalamiga mansub va har biri 12 nafar fan va madaniyat arbobiga bag'ishlangan «Buyuk siymolar» hamda «Ma'naviyat va ma'rifat yulduzlari» turkum plakatlarining nashr etilishi (2010) esa ulug' ajdodlarimizning xalqimiz, ayniqsa, yoshlar orasida keng targ'ib va tashviq qilish ishlariga muayyan hissa bo'lib qo'shildi. Naim Karimovning yangi avlod darsliklarini yaratishdagi xizmatlari ham alohida e'tiborga molik. Bunda bir necha bor qayta nashr etilgan 5, 9, 11-sinflarning «Adabiyot» hamda «XX asr o'zbek adabiyoti» darsliklarini tilga olishning o'zi kifoya deb o'ylayman. Serqirra ijodkor faoliyatida tarjimonlik ham alohida o'rin tutadi. U Balzakning «Yo'qolgan portret», Ya.Kolasning «Talash bobo» asarlarini ham qator rus, arman va belorus shoirlarining she'rlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash joizki, hayot va ijod yo'li butun bir soha yoxud sohaning katta bir davri haqida atroflicha tasavvur uyg'otadigan mutaxassislar O'zbekistonimizda barmoq bilan sanalidir. Chunki bunday

martabaga kimningdir xohish-istagi yoki maxsus sa'y-harakati yordamida erishib bo'lmaydi, balki u insonga taqdirning ajib bir inoyati sifatida taqdim etiladi. XX asr o'zbek adabiyotining bir qator darg'alarini nomma-nom sanash, ular faoliyatining ko'lami, miqyosi, qamrovidan hayratga tushishimiz mumkin, albatta. Lekin Naim Karimov ilmiy-ijodiy-ma'rifiy faoliyati qamrovi bu borada deyarli barcha ustoz-darg'alar ijodiy merosidan tubdan farqlanadi, desak xato bo'lmaydi. Salkam bir asrlik umri davomida fidoyi inson Naim Karimov faqat ziyoga intilib o'tdi va ziyolilikni o'z hayotiy tamoyiliga aylantirdi. Aytilganidek, ulug'larni o'rgansang o'zing ham ulug'lik sifatlarini namoyon qila boshlaysan. Naim aka butun umri mobaynida buyuk insonlar Vatanning ulug' farzandlari hayoti va ijodini o'rganib, o'zi ham ulug' sifatlar kasb etgan insonga aylandi. Umringiz uzoq bo'lsin, qadrlil Ustoz!



Baxtiyor HASANOV,
tarix fanlari doktori, professor,
O'zR Vn Qatag'on qurbonlari
xotirasi davlat muzeyi direktori

Jadidlar



IMALAR O'ZGARDI?..

...Ehtimol, bizning xalq ilmu ma'rifatni, tarbiya va ta'limni, hunar va sanoatni yaxshi ko'rar, deb o'ylaydurg'ondursiz? Yo'q, bu fikringiz yonglish. Eshonlarimiz toat va ibodat, pandu nasihat, zikru tasbeh o'rniga to'y yarlardan to'n kiyub, ko'b oshab, ko'p uxlashni yaxshi ko'rurlar. Ulamolalarimiz darsu ta'lim o'rniga, bir-birlari ila o'run talashib, mukarrir va mudarris bo'lishni, o'zlari bo'lolmay qolsalar, eshikma-eshik yurub saylovni buzishni yaxshi ko'rurlar. Imomlarimiz, xaloyiqg'a va'z va nasihat o'rniga, to'y va janozalarda yurub, joma kiyishni yaxshi ko'rurlar. Boylarimiz orqa-o'nglariga qaramasdan, foyda va zararlarini oyrimasdan bir-birlariga raqobat qilaman deb, «bonka» va «kridit»larini ko'payturub, do'ffilari tor kelganda rus va yahudiylarning mollarini bukub-sinishini yaxshi ko'rurlar. Mo'ysafidlarimiz namoz va niyoz o'rniga, masjid eshigiga yig'ilub o'turub, har kimni g'iybat va shikoyat qilishni yaxshi ko'rurlar. Muallimlarimiz bir-birlaridan qizg'onishub, bolalarni arzon o'qitaman deb, bir o'zlariga yuz, yuzdan ortuq bola yig'ub, o'zlari to'y va ma'rakalarda bolalarning umrini bekor o'tkarishni yaxshi ko'rurlar. Savdogarlarimiz: «To'ylikni to'yi o'tar, to'ysizni kuni o'tar» degan so'zga amal qilmay, qaysi mahallada to'y bo'lsa, dasturxonchilik qilishni yaxshi ko'rurlar. Do'kondorlarimiz ishlarini tartib-la solmay, zamonag'a muvofiq ish yuritmay, Mallaxon zamonidan qolg'on eski do'kon, eski tos, eski tartiblarini yaxshi ko'rurlar. Onalarimiz bilim va tarbiya o'rniga erlari ila urushub-talashub qizlariga mol qilmakni yaxshi ko'rurlar. Otalarimiz bolalariga o'qutmak va ta'lim bermak o'rniga «O'g'lum emdi kattakon yigit bo'lding, shuncha o'quganing yetar, pul top!» – deb «tashishka» – hammollik qildirishni yaxshi ko'rurlar. Zargarlarimiz yigirma tiyinlik kumush, o'n tiyinlik tillo orasiga mum va saqichlar joylab, ismini qiz hayron, zebigardon qo'yub, besh-o'n so'mga sotishni yaxshi ko'rurlar.

Tabiblarimiz dolchin, zanjabil, hubbul malik, filfil kabi bir necha attorni qutisida yo'q narsalardan murakkab doru va ma'junlar yasab, bechora nodon xalqni pulini olishni yaxshi ko'rurlar. Mashshoq va hofizlarimiz to'y va bazmlarga bir mardakni(ng) ismini bachcha qo'yub, o'zlari ila barobar olib yurub, «milliy adabiyot» o'rniga «Xonim yalola, begim yalola» deb bachchaga tashlanayotgan pullarni bo'lub olishni yaxshi ko'rurlar. Savodxonlarimiz jarida va jurnallar, tarix va ro'monlar o'rniga Daqyonus zamonidan qolg'on, xuroftolar ila to'lg'on «Andog' urdilariki, gard-gard bo'lub ketdi», deb loflar yozilg'on kitoblarni og'izlarini qufurturub o'qumoqni yaxshi ko'rurlar. Yoshlarimiz ilm va ma'rifatli bo'lishni, hunar, san'at o'rgonishni o'rniga, o'zlariga zeb berub tor shim ila kalta kamzul, qotirma yoqalarga bino qo'yishni yaxshi ko'rurlar. Ishchilarimiz ilm va hunardan mahrumligi sababli boshqa millatlar ilmu ma'rifatlari soyasida kuniga 4-5 so'm ishlab turgan bu zamonda kuniga uch tangag'a mardikorlikni, oyig'a o'n besh so'mga qorovullikni, yigirma so'mga fanar yoqishni, o'n so'mga ko'nka yo'lini tozalashni va shularga o'xshash eng past va og'ir xizmatlarni yaxshi ko'rurlar. Bolalarimiz otalarimizning ilm qadrin bilmagan, ilm uchun pulni ko'zlari qiymaganlik sababli o'qumoq va o'rganmoq o'rniga «Oh pul, jonim pul», deb «tashishka» – hammollikni yaxshi ko'rurlar. Muharrirlarimiz ko'b-ko'b oqcha olib, oz-oz yozishni yaxshi ko'rurlar. Mushtariylarimiz foydali maqolalar o'rniga xabarlarini yaxshi ko'rurlar. Shoirlarimiz milliy she'r va adabiyot yozishni o'rniga muvashshahmi yoki «qoshingdan, ko'zingdan», – deb, javonlarni maqtab fasod axloqg'a sabab bo'ladurg'on she'rilar yozishni yaxshi ko'rurlar. Ammo men bo'lsam, hozirgi zamonda indamasdan turishni yaxshi ko'rurman.

Abdulla AVLONIY,
«Tafakkur egalari» ijtimoiy sahifasidan olindi.

402

NAFAR SHAXS AFV ETILDI



Bosh Qomusimizning 30 yilligi munosabati bilan Davlatimiz rahbarining «Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilinib, 402 nafar shaxs afv etildi. Shu o'rinda mazkur Farmonning eng muhim jihati, bu afv etilganlarga jamiyatda munosib o'rinlarini topishlari uchun ko'mak berilishi ekanini ta'kidlash joiz. Ya'ni, ularning ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish asosiy vazifa ekanini belgilab qo'yildi. Ma'lumki, 2016 – 2021-yillarda O'zbekiston Prezidentining afv etish to'g'risida 17 ta Farmoni qabul qilinib, 5180 nafar mahkum afv etildi. Bir necha bor o'tkazilgan «Mehr» operatsiyasi doirasida esa Suriya, Iroq va Afg'onistonda og'ir ahvolda tushib, chorasiz qolgan yuzlab ayollar va bolalar mamlakatimizga olib kelindi. Shuningdek, turli yot oqimlar ta'siriga tushib, qilgan ishidan pushaymon bo'lgan 20 mingdan ziyod fuqarolar reabilitatsiya qilinib, hayotda o'z o'rnini topishga yordam berildi. Ta'kidlash lozim, bunday insonparvarlik aktlari davlatimizning Inson qadri uchun, hech kim mehr va e'tibordan chetda qolmaydi, har qanday holatda ham fuqarolarga g'amxo'rlik ko'rsatiladi degan insonparvarlik siyosatining yorqin namunasi bo'lyapti. Chunki adashib, nomaqbul yo'lga kirib qolgan, biroq kech bo'lsada o'z qilmishidan pushaymon bo'lganlarni kechirish xalqimizning qon-qoniga singib ketgan qadriyatlardan, albatta. Bunday harakat muqaddas dinimizda ham eng ulug' amallardan sanaladi.

Ulug'bek ZIYODULLAYEV,
xalq deputatlari Chilonzor tumani Kengashi deputati



3,6 million kishi dastlabki bo'g'in sanalgan tibbiy xizmat tomonidan qamrab olindi. Shu o'rinda oilaviy shifokorlar tomonidan aholiga bepul beriladigan 70 turdagi dori-darmonlar miqdori o'tgan yilgiga nisbatan 3 baravar ko'paygan.



ZAFAROBODDA «AYOLLAR DAFTARI» UCHUN MABLAG' YETMAYAPTIMI?

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Markaziy kengashi raisi Alisher Qodirovga Zafarobod tumani, «Pistalikent» mahallasida yashovchi Dilorom Shaxobovadan murojaat kelib tushdi.

Shu munosabat bilan, partiya Markaziy kengashi raisi o'rinbosari Feruza Muhammadjanova boshchiligidagi partiya faollari D.Shaxobova xonadonida bo'lib, mas'ul tashkilotlar hamrohligida murojaatda ko'tarilgan masalani atroflicha muhokama qildilar. Avvalo mahalla haqida qisqacha ma'lumot bersak: 3760 nafar fuqaro istiqomat qilayotgan «Pistalikent» mahallasi tumanning nisbatan sharoiti og'ir mahallalaridan. Ichki yo'llar ta'mirlab, bir paytlar tortilgan gaz quvurida esa gaz yo'q. Tez-tez o'chib turishini inobatga olinganda elektr ta'minoti joyida. Ko'pchilik erkaklar mahalladan uncha uzoq bo'lmagan sement zavodida ishlashar ekan. Ayollar esa asosan mavsumiy ishlar bilan band. Uchinchi sektorga qarashi mahallada «Ayollar daftari»ga 93 nafar, «Temir daftar»ga 8 nafar fuqaro, tez o'zgaruvchan «Yoshlar daftari»ga esa 23 nafar yoshlar kiritilgan.

1970-yilda tug'ilgan D.Shaxobova ham «Ayollar daftari»ga kiritilgan bo'lib, hozir u 2006 yilda tug'ilgan o'g'li bilan yashaydi. Turmush o'rtog'i o'n yil muqaddam Rossiyaga ishlagani ketgan, bedarak ketgan. Ayol ikkinchi guruh nogironi, sog'ligi yomonligi bois biron joyda muqim ishlamaydi. O'g'li Asilbek ayni paytda Jizzax shahridagi IT bo'yicha o'quv kursida tahsil oladi.

D.Shaxobovaga joriy yilda «Ayollar daftari» jamg'armasi hisobidan bir martalik 810 ming so'm miqdorda moddiy yordam, uy-joyini ta'mirlash uchun esa 9 mln. so'm miqdorida yordam berilgan. Shuningdek, 3-sektor rahbari tashabbus bilan uyini ta'mirlashga 70 dona shifer ham olib berilgan. — Ayrim mahallalarda o'z uyiga ega bo'lmagan, uyi bo'lisa-da, eshik-derazasi yo'q xonadonlarda yashayotgan oilalar bilan qiyoslansa, har qalay D.Shaxobovaning shart-sharoiti yaxshi. To'g'ri, biroz ichki ta'mirga muhtoj, lekin o'z uyiga ega. Muammo uning sog'ligida. Shu bois, biron joyda muqim ishlash olmaydi. Vaqti-vaqti bilan davolanishga, mutazam dori qabul qilishga majbur. Shuning uchun unga imkon darajasida yordam berish choralarini ko'rilyapti, lekin doimo ham imkoniyatimiz yetarli emas, — deydi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tuman bo'limi boshlig'i Shohida Mavlonova. O'rganish yakunida Dilorom Shaxobovaning sog'ligi bilan bog'liq muammo Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tuman bo'limi tomonidan

nazoratga olinadigan bo'ldi. Partiyaning ushbu hududdan viloyat Kengashiga saylangan deputati O'talug' Bayjonova ham bu ishlarni muntazam nazorat qiladigan va boshqa moddiy yordamga muhtoj ayollarning oilasiga yordam berish uchun homiylarni jalb etishda yordam ko'rsatadigan bo'ldi.

Muammoning «kattasi» boshqa joyda. Ma'lumki, Vazirlar Mahkamasi qarori bilan «Ayollar daftari»ga kiritilgan xotin-qizlarning muammolarini hal etish maqsadida mahalliy budget prognozining ortiqcha bajarilgan qismidan kamida 15 foizi, biroq «Ayollar daftari»ga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari xarajatlarini moliyalashtirishga yetarli bo'lgan miqdorda «Ayollar daftari» jamg'armasiga yo'naltirilishi belgilangan.

Ammo Sh.Mavlonovanning aytishicha, jamg'armaga asosan mahalliy budget prognozining ortiqcha bajarilgan qismidagi kamida 15 foizi tushadi, xolos. Bu mablag' besh-olti nafar ayollar korigagina yetarli. Hozirgi kunda tumandagi 125 nafar uy-joyi yaroqsiz ayollar muammosi bo'yicha viloyat hokimligi va tegishli mutasaddi idoralarga talabnomalar kiritilmoqda. Tuman hokimligidan beriladigan mahalliy budget prognozining ortiqcha bajarilgan qismi kelib tushadigan hisobvarag'idan ta'minlanadigan ayollar muammosi bo'yicha viloyat hokimligi va tegishli mutasaddi idoralarga talabnomalar kiritilmoqda. Tuman hokimligidan beriladigan mahalliy budget prognozining ortiqcha bajarilgan qismi kelib tushadigan hisobvarag'idan ta'minlanadigan ayollar muammosi bo'yicha viloyat hokimligi va tegishli mutasaddi idoralarga talabnomalar kiritilmoqda.

Demak, o'rganishlar davomida shu narsa ma'lum bo'ldiki, davlatdan doimo yordam olib turuvchi, deyarli ishlab chiqarish korxonalari bo'lmagan Zafarobodga o'xshash tumanlar uchun «Ayollar daftari» jamg'armasiga ajratilayotgan mablag'lar yetarli emas. Ishlab chiqarish korxonalari ko'p, tadbirkorlik rivojlangan Toshkent shahri tumanlari, viloyatlarimizdagi katta-katta shaharlarda bu boradagi ahvoh yaxshi bo'lishi mumkin.

Xullas, bu boradagi qonunchilikka o'zgartirish kiritish, mahalliy hokimliklarning aynan «Ayollar daftari» jamg'armasiga ajratiladigan mablag'lari qayta ko'rib chiqilishi kerak. Aks holda, muhtoj ayollarga moddiy yordam ko'rsatish, ularning hayotini yaxshilash va muammolarini hal etish ishlari yakuniga yetmay qolaveradi. Oqibatda joylardan kelayotgan murojaatlar ko'payishi mumkin...

Adinaxon ABDUXALIQOVA,
partiya Markaziy kengashi
Ijroiya qo'mitasi devari
Yuridik xizmat va murojaatlar
bilan ishlash sektori mudiri

FAQAT INNOVATSIYALAR VA SUN'YIY INTELLEKTGINA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI QIYOFASINI O'ZGARTIRADI

Yangi O'zbekistonda Tibbiyot xodimlari kuni o'z umrini fuqarolar hayoti va salomatligini saqlashdek xayri ishga bag'ishlagan insonlar bayrami sifatida keng nishonlanadi.

Qayd etish joizki, keyingi yillarda yurtimizda turli yuqumli kasalliklarning oldini olish, ularni keskin kamaytirish hamda bartaraf etishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar dasturi amalga oshirilmoqda. Unda belgilangan vazifalarning bajarilishi esa sog'liqni saqlash tizimining fuqarolarni jismoniy va ruhiy jihatdan uyg'un rivojlantirishga qaratilgan alohida muhim soha sifatidagi ahamiyatini oshirmoqda. Shuni alohida qayd etish joizki, Tibbiyot endilikda insonni sog'lomlashtirish va davolash jarayonlariga nafaqat barcha resurslarini, balki har bir kishining jismoniy, ruhiy va ma'naviy imkoniyatlarini ham jalb etishi maqsadga muvofiqdir. Tibbiyot xodimlarining kasb bayramlari haqida gap ketganida bu bayram faqat soha vakillari tomonidan emas, balki tibbiyotni ularning yordamisiz tasavvur etib bo'lmaydigan ko'plab sohalarda, chunonchi xastaliklarni aniqlash hamda davolash uskunalarini yaratuvchi injener-texnologlar, kimyogarlar, biologlar, laborantlar hamda sanitarlar tomonidan ham keng nishonlanmoqda. Davlatimiz rahbarining soha xodimlariga yo'llangan Murojaatnomasida ta'kidlandiki, endilikda tibbiy xizmatlar bevosita mahallalar va har bir vatandoshimiz xonadoniga kirib bormoqda. Yuksak malakali shifokorlar, olimlar va mutaxassislar bevosita joylarga chiqib, bemorlar salomatligini tiklashga munosib hissa qo'shishyapti.

Barchamiz yaxshi bilimiz, inson hayoti va salomatligini muhofaza qilishdek favqulodda muhim vazifani amalga oshirishdagi e'tiborsizlik og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham bugun tibbiyot taraqqiyoti jarayonida mavjud munosabat va yondashuvlarni tubdan o'zgartirish, «Inson — jamiyat — davlat» prinsipini hayotga tatbiq etish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bois tibbiyotning dastlabki bo'g'inini kuchaytirish, ayniqsa qishloqlar va mahallalardagi tibbiy xizmatni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga alohida e'tibor qaratmoqdamiz. Jumladan, 2022-yilning o'zida joylarda yuzdan ziyod oilaviy vrachlik punktlari, poliklinikalar va uzoq tumanlarda mingdan ziyod mahalla tibbiy maskanlari barpo etildi. Natijada 3,6 million kishi dastlabki bo'g'in sanalgan tibbiy xizmat tomonidan qamrab olindi. Shu o'rinda oilaviy shifokorlar tomonidan aholiga bepul beriladigan 70 turdagi dori-darmonlar miqdori o'tgan yilgiga nisbatan 3 baravar ko'payganini aytish joiz. Boshlang'ich tibbiy muassasalar ultratovush uskunalari, elektrokardiografiya, stomatologiya va jarrohlik asboblari bilan jihozlanmoqda. Oilaviy poliklinikalarda kunduzgi stasionarlar tashkil etilishi natijasida esa 740 ming kishi bevosita o'z mahallalarida davolanish imkoniga ega bo'ldilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-maydagi «Sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni va tibbiyot xodimlari salohiyatini oshirish uchun zarur sharoitlar yaratish, shuningdek tibbiyot sohasida innovatsion texnologiyalar va ishlanmalarni

joriy qilishni izchil davom ettirish to'g'risida»gi qarorida ham sog'liqni saqlashni boshqarishga innovatsion modellarni yana-da kengroq tatbiq etishga yangicha omil bag'ishlandi, deyish mumkin. Tan olish joiz: bozor sharoitida O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimi ham ko'plab muammolarga to'qnash keldi. Bozor sektori esa innovatsion yo'nalish, resurslardan foydalanishda iqtisodiy samaradorlik va iste'mol talabiga nisbatan sezgirlik va hozirjavoblikka asoslanadi. Binobarin, aholining tibbiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji tobora ortib borayotgan, biroq ushbu xizmatlar uchun mo'ljallangan budget mablag'lari cheklangan sharoitda barcha muassasalarni davlat sektorida saqlab turishdan ma'no yo'q. Zero, tibbiyot sohasidagi innovatsiya kasalliklar profilaktikasida, ularni aniqlash va nazorat qilishda yangi uslublarni vujudga keltirish, shuningdek, yangi dori-darmonlar va xastaliklarni kuzatish hamda davolash texnikasini yaratish imkonini beradi. Ayni paytda tibbiy innovatsiya — bu bilimlar mabnaini kengaytirish va hozirgi kunda qo'llanilayotgan aholining tobora ortib borayotgan talab va ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan texnologik va biznes modeldarini o'zgartirish hamda yuksaltirish demakdir. Ma'lumki, bugunga kelib, sun'iy intellekt va boshqa yangi texnologiyalar butun dunyoda tibbiy innovatsiyalarni rag'batlantirmoqda. Sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalar esa tibbiyotdagi raqamli texnologiyalar yordamida uzatilayotgan axborotlarni tahlil etishga yordam bermoqda. Ular tibbiyot xodimlariga muammolarni o'z vaqtida aniqlash va mantiqan to'g'ri, asosli qarorlar qabul qilish imkonini ham yaratayotir. Ta'kidlash joizki, o'tgan davr mobaynida yutuqlar bilan bir qatorda muayyan kamchiliklar va yechimini kutayotgan muammolarga ham duch keldikki, ular soha rivoji va innovatsion taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Fikrimizcha, bugungi kunda tibbiyot tizimidagi innovatsion taraqqiyot darajasi ancha pastligicha qolmoqda. Aynan tizimni yondashuv, sog'liqni saqlash tizimini innovatsion rivojlantirishning bosh omili sifatida iqtisodiy-tashkiliy mexanizmlar modelini yaratish orqali ana shu muammoni hal etish mumkin. Aytish mumminki, bugungacha innovatsion sog'liqni saqlash Milliy palatasi tizimni innovatsion boshqarish modeli xalqaro standartlar va dunyodagi ilg'or tajribalarni hisobga olgan holda yetarli darajada amaliyotga joriy etolmadi. Ushbu sohani innovatsion rivojlantirishga to'sinlik qilayotgan asosiy muammo sifatida esa manfaatdor taraffar fikrlarini har tomonlama hisobga olish imkonini mavjud emasligini ko'rsatish mumkin. Uni hal qilish uchun esa barcha manfaatdor shaxslar (bemorlar, vrachlar, tadqiqotchilar, tibbiy texnika sotuvchilar va h.k.) salomatlik va tibbiyot tashkilotlari bilan hamkorlik borasidagi mavjud muammolar haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirishlari uchun ochiq axborot platformasi yaratilishi lozim. Shuningdek, tibbiy xizmat sohasida innovatsiyani rivojlantirish borasidagi muammolarni tahlil qilish,

baholash, nazorat qilish va tatbiq etish vakolatiga bo'lgan yagona Markaz tashkil etilishi lozim. Tibbiy muassasalardagi o'zaro tarqoq muhit esa diagnostik va ma'muriy axborotlar oqimini murakkablashtirib, tibbiy va iqtisodiy qarorlar qabul qilishni qiyinlashtirayotir. Shulardan kelib chiqib, bemorlar parvarishi va moliyaviy nazorat uchun mas'ullarga o'z vaqtida ishonchli axborot olish imkonini beruvchi yangicha hisobot tizimini yaratish zarurati paydo bo'lmoqda. Eng asosiy masala bu — markazlashgan ishonchli ma'lumotlar bazasini yaratishdan iborat. Shu maqsadda tibbiyot xodimlariga tibbiy va iqtisodiy baholash jarayonini uyg'unlashtirish va tezlashtirishga qaratilgan hisobot-tahlil tizimini yaratish zarur.

Ushbu tizim o'z o'rnida tegishli amaliyot tizimlarini birlashtiradi; axborot oqimlarini optimallashtiradi va aniq ma'lumotlar va ratsional yechimlarga asoslangan holda shifoxona boshqaruvi bitta tugmani bosish bilan olib borish imkonini beradi. Bundan tashqari, foydalanuvchilarning tizimga o'z kompyuterlarida axborot portali orqali kirishlari va hisobot hamda tahlillari shaklidagi kerakli ma'lumotlarni olishlari mumkin bo'ladi. Shifoxonaning bir necha tizimlaridan yuborilgan ma'lumotlar asosida qayta ishlangan hisobotlar esa avtomatik tarzda yangilab boriladi. Ular foydalanuvchilarga qimmatli ma'lumotlarni taqdim etish barobarida bemorlarni davolash sifatini va rentabelligini oshiradi, shuningdek, shifoxonaning raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Shu bilan birga, yangi va ishonchli ma'lumotlar moliyaviy nazorat samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Moliyaviy qarorlar qabul qilishga mas'ul shaxslar esa bemor parvarishi rentabelligini yaxshiroq baholay boshlaydilar. Klinikalarga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha xarajatlari esa avtomatik tarzda ichki xarajatlari hisobi markazlari o'rtasida taqsimlanishi mumkin bo'ladi. Foydalanuvchilar interfaol rejimda mufassal tahlillarni bajarishlari va foydadagi o'zgarishlar sabablarini aniqlash hamda shifoxona budjeti muhokamasi paytida o'z mulohazalarini asoslash imkoniga ega bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda, Sog'liqni saqlash tizimidagi innovatsion faoliyat fuqarolar turmush farovonligini yaxshilashga qaratilgan barcha texnologik, tashkiliy, iqtisodiy va axboriy innovatsiyalarni qamrab olishi lozim. Bunday model tibbiy xizmatlarni tartibga solish va moliyaviy nazoratning samarali mexanizmlarini shakllantiradi. Sog'liqni saqlashning innovatsion modeli iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolatni ta'minlovchi o'ziga xos xo'jalik yuritish mexanizmiga ham ega bo'lishi kerak. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sharoitidagi sog'liqni saqlashning innovatsion modelida «ijtimoiylik»ning o'zi bosh omil bo'lishi, «bozor munosabatlari» esa unga buysunuvchilik rolini bajarishi zarur. Zero, sog'liqni saqlashning innovatsion modelidan ko'zlangan maqsad — aholining sifatli tibbiy xizmatga bo'lgan ehtiyojini qondirishdan iboratdir.



Farangiz MUHAMMEDOVA,
Innovatsion sog'liqni saqlash Milliy palatasi bosh mutaxassisi

Statistika



11 OYDA 850282 KISHIGA KO'PAYDIK

Davlat statistika qo'mitasining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida respublika bo'yicha 850282 nafar tirik tug'ilish holatlari FHDYO organlarida qayd etilgan. Hududlar kesimida tug'ilishlar soni Samarqand viloyatida 101858 nafarni tashkil etib, bu borada yetakchilik qilmoqda.

✓ Ibrat

PARVARDIGOR SENI AFV ETDI

Bir odam olamdan o'tibdi. Savol-javob boshlanmasdan avval yoniga malaklar kelibdi. Malaklar: Senga savol-javobsiz jannatga kirmoqlik amr etildi. Biz bilan yur, — debdi. Odam: Men jannatda yashash u yoqda tursin, uning hidini hidlashga ham arzimaydigan noshukur bir odamman. Umrin davomida na birovg'a bir og'iz shirin so'z aytdim, na bir yaxshilik qildim. Jannatga kirish uchun yuz bormi menda? Menimcha, bu bir xatolik. Siz adashdingiz. Malaklar: Tangri Taolo xato qilmas. Sen xotirjam bo'l. Biz ham sening kimligingdan xabardor edik. Ammo Yaratganning

marhamati va himmati cheksiz. Uning izni har narsadan ustun. Bizga seni jannatga kiritish vazifasi buyurildi. Odam: Yo'q, yo'q... mening sarxush bo'lmagan kunim, og'zimdanda yomon so'z chiqmagan soatim yo'q edi. Qaysi ishim uchun jannatga kiraman? Malaklar: Yodingdami, yomg'ir yog'gan kechalarning birida ko'chalarni mast-alast holda kezarkansan, birdan oyog'ing toyib yiqilib tushding. Ust boshing, har yering loy bo'ldi. O'sha kecha ro'parangdagi eshikda bir yetim bola yolg'iz yig'lab o'tirgandi. Sen o'rningdan arang turdingda, uning yoniga

kelib, boshini silading. Bir yetimning boshini silaganing uchun Alloh sening barcha gunohlaringni kechirdi. Odamning faryodi olamni tutdi. Odam: Mening maqsadim bolaning sochini silash emas, qo'limning loyini uning sochlariga artish edi. Artdim va yo'limga davom etdim. Men jannatga loyiq emasman. Loyiq emasman, — deya yig'ladi. Malaklar: Sening maqsadig shunday edi. Ammo... bir yetimning sevinchiga, ko'ngli ko'tarilishiga sababchi bo'lding. Shu sabab Parvardigor seni afv etdi, — dedilar. Allohim, barcha gunohkor bandalaringni o'zing afv et...

✓ Mulohaza

KASB TANLASHDAGI XATO QIMMATGA TUSHISHI MUMKIN

Bola ulg'ayar ekan, unda kelajakda qaysidir soha egasi bo'lishga intilish hissi paydo bo'laveradi. Bu o'z kasbidan hurmat topgan kishilarga nisbatan havas yoki yaqinlarining tavsiyasi va maslahatlari asosida kurtak yozadi. Ochig'i, o'quvchini kasbga to'g'ri yo'naltirish muhim, ayni paytda nihoyatda mashaqqatli vazifa. Bunda eng avvalo ota-onaga pedagoglar yordamchi hisoblanadi. Chunki pedagogda bolaning boshqalardan ajralib turuvchi xususiyatlarini ilg'ash, undagi intellekt va salohiyatni baholay olish imkoniyati mavjud. Bunda o'quvchining vaqtinchalik qiziqishlarini rad etib, uning ichki imkoniyat va iqtidoridan kelib chiqqan holda boshqa kasbga yo'naltirish juda muhim. Misol uchun, o'quvchi harbiy bo'lmoqchi, lekin uning tabiiy fanlardan bilim yuqori. Shuni inobatga olib, bolani harbiy shifokorlik yoxud sohaning hisob-kitob bilan bog'liq bo'g'iniga

yo'naltirish mumkin. Boshqa bir hoiatda bola shifokorlikni tanlagan, lekin uning texnika va axborot resurslariga qiziqishi baland. U ham aynan tibbiyotning bevosita kompyuter bilan boshqariladigan tarmoqlariga yo'naltirilsa, maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, evolyutsion taraqqiyot davom etar ekan, yangidan-yangi kasblar paydo bo'laveradi. Bu jarayonda esa ayrim kasblar eskiradi. Davr taqozosi bilan ularga bo'lgan ehtiyoj kamayadi yoki butunlay yo'qoladi. Masalan, fan va texnika taraqqiy etgan, xat va maktublar turli ko'rinishda egasiga yetkaziladigan bir paytda pochta kasbiga deyarli ehtiyoj yo'qolib boryapti. Shu ma'noda, sezgir o'qituvchi bolani davr bilan hamnafas holda, to'g'ri kasbga yo'naltira olishi kerak. Shuningdek, o'quvchilarni kelajakda kam ehtiyoj seziladigan sohalarga yo'naltirishdan ham ehtiyoj bo'lish kerak. Chunki bola tanlagan kasb uning kelajagini belgilab, unga butun umr hamroh



bo'ladi. Xulosa qilib shuni aytish joizki, har birimiz tanlagan kasb jamiyat taraqqiyoti uchun ham foydali bo'lishi zarur.

Mahliyo RUSTAMOVA,
Uchquduq shahar 8-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot o'qituvchisi

✓ Ekologiya

DUNYODAGI HAVOSI ENG YOMON 100 TA SHAHAR NOMI MA'LUM QILINDI



Pekin (XRR), Bag'dod (Iroq) va Bishkek (Qirg'iziston) shaharlari 2022-yil dunyoning havosi eng yomon 100 shahri ro'yxatida birinchi uchlikni egalladi, deyiladi World Air Quality jahon reytingi saytida keltirilgan hisobotda. Mazkur reyting dunyoning 100 ta shahrida 0,001 dan 2,5 mikrometr o'lchamigacha bo'lgan kichik zarralarni ko'rsatuvchi PM2,5 ma'lumotlariga ko'ra tuzilgan. Masalan, reytingda keltirilishicha, hozirgi paytda Bishkekda RM2,5 konsentratsiyasi Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tavsiyasi qilgan havo sifatining yillik me'yoridan 49,1 barobar yuqori hisoblanadi.

Havosi eng yomon shaharlar reytingida yuqori o'rinlarni jumladan, Dehli, Mumbay va Kalkutta (Hindiston), Laxor va Karachi (Pokiston), Moskva va Arxangelsk (Rossiya), Toshkent (O'zbekiston), Ostona (O'zog'iston), Doxa (Qatar), Ar-Riyod (Saudiya Arabistoni), Quddus va Tel-Aviv (Isroil), Sofiya (Bolgariya), Nyu-York, Porlend, Detroyt (AQSH), Krakov (Polsha), Bryussel (Belgiya), Vena (Avstriya), Toronto (Kanada), Budapesht (Vengriya), Tokio (Yaponiya), Istanbul (Turkiya) va dunyoning boshqa bir qator shaharlari egallagan.

Hisobot mualliflarining ta'kidlashicha, havoning ifloslanishi atrof-muhit uchun eng jiddiy tahdid hisoblanadi, chunki u har yili 7 million kishining o'limiga sabab bo'lar ekan. Bunday havo ko'pgina, astmadan tortib saratongacha, sildan tortib yurak xastaligigacha bo'lgan kasalliklarni qo'zg'atadi va davosini qiyinlashtiradi. Har kungi iqtisodiy zarari dunyo bo'yicha 8 milliard dollarni tashkil etadi. 2019-yilda dunyo bo'yicha jami o'lim holatining 12 foiziga havoda (xonalarda ham, ko'chada ham) zararli moddalar ko'pligi sabab bo'lgan.

O'ZA

«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETASI

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Alisher QODIROV – kengash raisi

Akmal SAIDOV,
Abdulaziz AKKULOV,
Abror PO'LATOV,
Amriddin BERDIMURODOV,
Akmal JUMABOYEV,
Bahodir MAMATXONOV,
Baxtiyor SAYFULLAYEV,
Ilhom ABDULLAYEV,
Ibrohim G'OFUROV,
Iroda DADAJONOVA,
Minhojiddin MIRZO,

Nodir MUXTOROV,
Odiljon TOJIYEV,
Olim O'SAROV,
Otabek JIYANBOYEV,
Ozodbek NAZARBEKOV,
Ortiqali QOZOQOV,
Feruza MUHAMMADJANOVA,
Xurshid DO'STMUHAMMAD,
Sherzodxon QUDRATXO'JA,
Shavkat SHARIPOV,
Shuxratjon AXUNDJANOV.

Bosh muharrir:
Mirodil ABDURAHMONOV

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri,
Uchtepa tumani,
Maqsud Shayxzoda ko'chasi, 1 A-uy.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflariga qaytarilmaydi.

NAVBATCHI MUHARRIRLAR:
Ravshan MAHMUDOV,
Abdug'afur OMONBOYEV
NASHR UCHUN MAS'UL:
Ma'murjon YULDOSHEV
NAVBATCHI:
Viloyatxon SHODIYEVA
DIZAYN GURUHI:
Asibek QUDRATOV,
Firdavs HAMIDULLAYEV

Elektron pochta:
mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru

Gazeta "Sharq" nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi.
Korxonalar manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy

2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.
Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

Adadi – 5 057.
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.
Qog'oz bichimi: 350x587. Hajmi: 3 bosma taboq
Buyurtma – 1216
Bosishga topshirish vaqti 21:00.
Topshirildi 2:00

ISSN 2010-7714

123456

Fasli navbahor o'ldi...

Fasli navbahor o'ldi, ketibon zimistonlar,
Do'stlar, g'animatdur, sayr eting gulistonlar.

Subhidam tushub shabnam bo'ldi sabzalar xurram,
Gul uza tomib kam-kam yog'di abri naysonlar.

Nastaran yuvib yuzni, yosumon tuzib o'zni,
Nargis ochibon ko'zni intizori yoronlar.

Bir sahar edim uyg'oq: o't tutoshti olamg'a,
Tog'lar chekib larza, titradi biyobonlar.

Qumrilar qilib ku-ku, bulbul aylabon chah-chah,
Sarv gul uza doim tortar oh-u afg'onlar.

Bulbul o'qug'och yig'lab subhidam xazon faslin,
G'uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar.

Kechtilar vafo ahli qolmayin tutub savsan,
Kiydi ko'k qilib sunbul zulfini parishonlar,

Kuymasun bu savdoda ne uchun dimog'imkim,
Ranj-u g'ussada dono, kechsa shod nodonlar.

SURMADIN KO'ZLAR QARO...

Surmadin ko'zlar qaro, qo'llar xinhodin lolarang,
G'ozadin yuzlarda tobu, o'smadin qoshlar tarang.

Za'faroniy ko'yilak uzra arg'uvoniy kamzihul,
Ro'yamol og'ushidin peshonani ahvoli tang.

Bori nozik panjalar oltun uzukdin zebnok,
Qo'l bilaguzukdin muzayyan, nuqradin og'izda chang.

Gavhar osqon halqalar siymin banogoshida band,
Ko'rinar, zulfi tunida subhi sodiqdek arang.

G'amza birla o'tlurur, gah jilvalar birla yurur,
Turfa bir noz, ofarin, pur ishva tanoz-u satang.

Aql-u hush eltar agar tursa, paridek silkinib,
Odamizod ichra ham mundog' bo'lurmu sho'x-shang?

Yo'q qutulmoqliq' menga, ul ofati jon dastidin,
Qasdim qoshlar kamon, payvasta mujgonlar xadang.

Ul parivash ishqidinki, telbadurmen, goh sog',
Chunki bordur oramizda goh sulh-u gohi jang.

Javrlarkim, Furqat, ul sho'xi jafajo ayladi,
Muncha bedod-u sitam qilmas musulmong'a farang.

BIR QAMAR SIYMONI KO'RDIM...

Bir qamar siymoni ko'rdim baldayi Kashmirda,
Ko'zlari masxur-u yuz jodu erur taxsirda.

Zarra-zarra zar sochar boshig'a har kun oftob,
Subh kelgach, kecha yotib chashmayi iksirda.

Bir ko'rib chohi zaqan Xorut ila Morut ikov,
Chohi Bobil ichra qolmishlar bo'lak tadbirda.

Lam'ayi qiyg'och ko'zidin aning barqi nigoh,
Tezlik javharlari gar bo'sa har shamshirda.

Qoshi uzra xolining asroridin bir nuqtadur,
«Surayi Nun» o'qudim payvasta har tafsirda.

Forig' ermas hech kim ul dilraboning ishqidin,
Zulfiga dilbastalig' har bir juvon-u pirda.

Aydim: «Ey, jon ofati, zulfingga bo'lmisham asir!»
Aydi: «Bu savdoni qo'y, umring o'tar zanjirda!».

«Nuqta lab ustida bejodur», dedim, aydi kulib:
«Sahv qilmish kotibi qudrat magar tahrirda».

Aydi: «Ey bechora, qilding na uchun tarki vatan?»
Man dedim: «G'urbatda Furqat bor ekan taqdirida!».